

**“Quyuv-prokat majmuasini qurish” investitsiya
loyihasini amalga oshirilishi yuzasidan
MA’LUMOT
(2024 yil 31 dekabr holatiga)**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida” 2021 yil 30 dekabrdagi PQ–72-son qaroriga asosan “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan **“Quyuv-prokatlash majmuasini qurish”** investitsiya loyihasi (keyingi o‘rinlarda – Loyiha) amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning yanvar- dekabr holatiga **147,8 mln. dollar** kapital mablag‘lar o‘zlashtirildi, shundan: qurilish-montaj ishlari **81 mln. dollar**, asbob-uskunalar **62,2 mln. dollar**, Boshqa yo‘nalishlar **4,6 mln. dollar**.

Mazkur loyihani amalga oshirish doirasida texnologik uskunalarini yetkazib berish uchun **“Danieli”** (Italiya) kompaniyalar guruhi bilan jami qiymati **359,3 mln yevrolik** va qurilish ishlari uchun **“Ronesans Avrasya”** (Turkiya) kompaniyasi bilan **170,0 mln yevrolik** shartnomalar imzolangan.

1. “Ronesans Avrasya” kompaniyasi bo‘yicha

Bugungi kunga qadar kombinat tomonidan **168,9 mln yevro** miqdorida to‘lov amalga oshirilib, shundan **37,6 mln yevro** miqdorida avans to‘lovlari, **131,3 mln. yevro** amalda bajarilgan ishlari uchun. Bugungi kunga qadar quyidagi ishlar bajarildi:

1 Mobilizatsiya ishlari	to‘plam	90,59 %
2 Yer qazish	m3	398 749,36
3 Qayta to‘ldirish	m3	193 593,4
4 Beton qoplama	m3	12 416,49
5 Texnologiya uskunalar poydevori	m3	52 591,60
6 Asosiy bino poydevorlari	m3	26 547,96
7 Beton pol	m3	7 359,92
8 Polimerli gidroizolyatsiya	m2	14 668,05
9 Elektr qismlarni yerlatish	m2	43 998,06
10 Zang arig‘ining yemirilishga bardoshli qoplamasи	m2	549,85
11 Shlaklardan saqlanish bo‘linmasi	m2	931,82
12 Cement – gips ishlari	m2	1 762,27
13 Bo‘yash ishlari	m2	15 413,01

14 Issiqbardosh beton ishlari	m2	318,02
15 Moybardosh qoplama	m2	9 189,07
16 Havo ajratish binosi	m2	725,22
17 Kompressor stansiyasi binosi	m2	457,71
18 Suv tayyorlash binosi	m2	2 437,66
19 Bir qavatli elektr xonasi	m2	1 920,7
20 Ko‘p qavatli elektr xonasi	m2	9 035,29
21 Laboratoriya binosi	m2	65,40
22 Yer osti gidravlika xonasi	m2	413,84
23 Kompressor stansiyasi va prokatlash stanlarining asosiy nimstansiyasi binosi	m2	432,0
24 Suyuq po‘latni kompleks qayta ishlash va elektrda po‘lat eritish uskunalarining asosiy nimstansiyasi binosi	m2	264,06
25 Kranlarni montaj qilish	tonna	307,62
26 Asosiy binoni yoritish ishlari	m2	31 650,4
27 Transformatorlarni montaj qilish	dona	30 ta
28 Kabellarni montaj qilish	tn	343,49
29 Kabel ariqlarini o‘rnatish	tn	206,64
30 Tom va devor yopish ishlari	m2	30 338,95
31 Sendvich-panellarni o‘rnatish	m2	25 336,85
32 Tabiy yoritish jihozlarini o‘rnatish	m2	2 150,08
33 Kanalizatsiya	m	7 075,00
34 Issiq suv quvuri montaji	m	10 445,0
35 Sovuq suv quvurlari	m	3 701,0
36 Perimetr devorlari poydevori	m2	1 324,54
37 Ishchi hujjatlari	to‘plam	100,0%
38 Temir – beton qoziqlari	m3	3 385,6 (100 %)
39 Temir – beton himoya inshootini o‘rnatish	m3	4 015,6 (100,0 %)
40 Po‘lat konstruksiyalarini o‘rnatish	tonna	15 163,7
41 Yer osti suv sathini tushurish	foiz	244,32
42 Qo‘srimcha loyiha ishlari	odam-soat	17 110,00
43 Yordamchi uskunalarni yetkazib berish	mln. yevro	13,0

(kranlar va transformatorlar)

44 Past kuchlanishli elektr montaj ishlari	m2	9 077,62
Umumiy bajarilgan ishlar xajmi		88,27 %

Mazkur loyihani amalga oshirish doirasida bosh pudratchi “Ronesans Avrasya” kompaniyasi tomonidan qurilish-montaj ishlariiga **1 298 nafar** ishchixodim jalg etilgan bo‘lib, **301 nafari** muhandis-texnik xodimlar hamda **98 ta** texnikalar jalg qilingan.

Shu bilan birga, qurilish maydonida “Ronesans Avrasya” kompaniyasi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- texnologiya poydevorlarini o‘rnatish;
- po‘lat konstruksiyalarini montaj qilish;
- birlamchi zang tindirish hovuzida temir-beton ishlari;
- ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.

2. “Danieli” (Italiya) kompaniyalar guruhi bo‘yicha

Kombinat tomonidan jami **318,89 mln yevro** miqdorida to‘lov amalga oshirildi. Shundan, qiymati **255,5 mln yevro** yoki **95,4 %** (jami **267,7 mln yevro**) texnologik uskunalar kombinatga keltirildi va **253,5 mln yevro** yoki **94,6 %** bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazildi.

Qiymati **20,6 mln yevro** bo‘lgan asosiy texnologiya uskunalar uchun injiniring **100 %** ishlab chiqildi. Jami **2,58 mln yevro** yordamchi uskunalar va ehtiyyot qismlar injiniring loyihasining **100 foizi** ishlab chiqildi.

“Danieli” (Italiya) kompaniyalar guruhi montaj jamoasi bosqichma – bosqich qurilish maydonchasiga safarbarlik jarayoni davom etmoqda va kerakli texnikalarning aksariyat qismi qurilish maydonchasiga keltirildi.

Hozirgi kunga qadar qurilish maydonchasida **48,1 mln yevro** yoki **79,5 %** (jami **60,5 mln yevro**) miqdorida montaj ishlari va maslahat ishlari amalga oshirildi.

3. “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan bajarilayotgan ishlar bo‘yicha

Qurilish-montaj bo‘linmasi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ob’ekt qurilishi uchun **18,5 hektar** yer maydonini ajratish bo‘yicha tegishli qarorlar rasmiylashtirildi;
- **893 m3** dan oshiq hajmda **temirbeton konstruksiyalari** o‘rnatildi;
- qurilish maydonlaridagi **8 ta** mavjud **yordamchi sex, bino va inshootlar to‘liq demontaj** qilindi;
- kombinat ichki logistika samaradorligini oshirish va yuk avtomobillarining uzluksiz oqimini ta’minlash maqsadida “**Dalvarzin**” kanali orqali yangi ko‘prik hamda **6-son yangi nazorat-o‘tkazish punkti** qurildi;

- qurilish maydonlarida **muxandislik-geologiya ishlari** to‘liq nihoyasiga yetkazildi;

- 3-son **temir parchalarini tayyorlash estakadaning to‘liq demontaji** yakunlandi, jumladan, barcha ustunlar, plitalar, kranosti ustunlar va galereyalar (o‘tish joylari) to‘liq demontaj qilindi;

- **ma’muriy korpus** bo‘yicha umumiylar qurilish ishlari **100 foizi** bajarildi;

- **maishiy korpus** bo‘yicha umumiylar qurilish ishlari **70 foizi** bajarilgan bo‘lib, hozirgacha bino qad rostlab tom qismi yopilgan, yakunlash ishlari loyihaning so‘nggi bosqichlarida rejalashtirilgan;

- **oshxona qurilishi** bo‘yicha ishlar to‘liq yakunlanib, pudratchiga vaqtincha foydalanish uchun topshirilgan;

- **814 metrli** yangi temir yo‘l to‘liq qurib bitkazilib, foydalanishga topshirilgan;

- **markazlashgan ombor** bo‘yicha qurilish-montaj ishlari **100 foizi** bajarilgan bo‘lib, ko‘prikli kranlar yetkazib berilgan va tashqi kommunikatsiya tortilishi ishlari amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda ushbu binodan “Danieli” kompaniyalar guruhi tomonidan yetkazib berilgan uskunalarni saqlash ombori sifatida foydalanilmoqda;

- Bekobod shahri ostonasidan kombinat hududiga eltuvchi, uzunligi **1,2 km** bo‘lgan **yangi avtomobil yo‘li qurilishi** to‘liq yakuniga yetkazilib, foydalanishga topshirildi;

- “Sirdaryo” IESdan “O‘zmetkombinat” AJga qarashli “Metallurgiya” va “Pechnaya” nimstansiyalarigacha uzunligi **23 km** bo‘lgan yangi ikki zanjirli yuqori kuchlanishli **elektr uzatish liniyalari qurilishi** ishlari **100 foizga** amalga oshirilgan bo‘lib, hozirgi kunda “Metallurgiya” nimstanitsiyasiga himoya vositalarini o‘rnatish loyihasini ishlab chiqilib, “Metallurgiya” va “Pechnaya” nimstansiyalarini kengaytirish ishlari olib borilmoqda;

- po‘lat konstruksiyalarini yetkazib beruvchi kompaniyani tanlab olish uchun elektron tender savdolari natijalariga ko‘ra “Enter steel” MChJ g‘olib deb topildi. Kompaniyaning umumiylar ish hajmi **10,2 ming tonna** po‘lat konstruksiyalarini yetkazib berish uchun **337,8 mlrd so‘mlik** shartnoma imzolandi va **227,8 mlrd so‘m** miqdorida avans mablag‘lari o‘tkazildi, **10 211,02 tn** konstruksiyalar yetkazib berildi.

“Ronesans Avrasya” va “DAL HEAVY” kompanyalari o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar, alohida shartnoma doirasida, “Ronesans Avrasya” kompaniyasi zimmasidan “O‘zmetkombinat” AJ zimmasiga o‘tkazildi va natijada **“DAL HEAVY”** kompaniyasi **“Tayyor maxsulotlar saqlash ombori”**, **“Prokatlash vallariga mexanik ishlov berish ustaxonasi”** hamda **“Tunnel pechi”** binolari uchun po‘lat konstruksiyalar yetkazib berish majburiyatini oldi. Hozirgi kunga qadar **3 586,5 tonna** po‘lat konstruksiyalar yetkazib berildi.

Bundan tashqari, kombinatga qarashli Po'lat konstruksiyalar ishlab chiqarish sexi tomonidan “**Prokatlash stani**” uchun **1 456,12 tn (100%)**, 2 va 3 binolar uchun **2 407,0 tn (94,39%)** po'lat konstruksiyalar ishlab chiqarildi.

- havo ajratish uskunasini yetkazib berish va montaj qilish bo'yicha tender xujjatlari bo'yicha “Loyihalar va import shartnomalarni kompleks ekspertiza qilish” DUKning ijobi yulosisi olindi va 2022 yilning 15 martdan 2022 yilning 8 aprel sanasigacha 50912 – sonli lot, **14,1 mln yevro** boshlang'ich narx bilan **elektron tender savdolari** e'lon qilindi.

Tender natijasiga ko'ra, Xitoyning **AVIC** kompaniyasi **12,7 mln yevro** taklif bilan texnik va tijoriy tomonlama g'olib deb topilib yuqoridagi summaga shartnomalar imzolandi va **2,5 mln yevro** miqdorida avans mablag'i va **6,8 mln yevro** yetkazib berilgan uskunalar uchun pul o'tkazildi. **12,4 mln yevrolik** yoki **96,5 %** (jami **12,7 mln yevro**) uskunalar keltirildi va bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazildi. Bazaviy loyiha **100%**ga bajarildi va uskunalarni yetkazib berish davom etmoqda;

- 2022 yil 22 fevralda mavjud EPES binosining bir qismini demontaj va montaj qilish uchun loyiha – smeta xujjatlari bo'yicha Qurilish vazirligi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUKning ijobi yulosisi olindi va 2022 yilning 21 aprel sanasigacha 61910 – sonli lot, **14,5 mlrd so'm** boshlang'ich narx bilan elektron tender savdolari e'lon qilindi va tender savdolari natijalariga ko'ra “**Chimqo'rg'on servis invest**” MChJ **12,7 mlrd so'm** taklif bilan g'olib deb topildi va shartnomalar imzolandi. Hozirda ishlar to'liq yakunlandi.
- - IBT larni to'kish statsiyasini yetkazib berish va o'rnatish uchun boshlang'ich qiymati **8,066 mln yevro** bo'lgan tender tanlovi elon qilindi 02.03.2023g tender natijalariga ko'ra **5.065 mln yevro** taklif bilan “Shanghai Sunshine Industries Technology Co., LTD” kompaniyasi g'olib deb topildi va **5,0 mln yevro**ga shartnomalar imzolandi. **4,5 mln yevro** miqdorida avans mablag'lar o'tkazildi. **3,4 mln yevrolik** yoki **69,7 %** (jami **5,0 mln yevro**) uskunalar keltirildi va bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazildi.

4. Moliyalashtirish masalasi bo'yicha

Moliya vazirligining yevroobligatsiyalardan tushgan mablag'lar evaziga “Ipoteka bank” ATIB va “O'zmilliybank” AJlar bilan **100,0 mln dollar** kredit mablag'larini olish bo'yicha sinditsiyalashtirilgan kredit shartnomasi imzolangan bo'lib, shundan **100,0 mln dollar** to'liq loyihani amalga oshirish uchun o'zlashtirilgan.

2021 yilning dekabr oyida Jamg'armaning **140,0 mln yevrollik** mablag'larini to'liq o'zlashtirildi.

Jamg'armaning **110,0 mln yevrollik** mablag'larini to'liq o'zlashtirildi.

Loyihani moliyaviy resurslar bilan ta'minlash maqsadida “O'zmetkombinat” AJ eksport kredit agentliklari “SACE” (Italiya) va “Euler Hermes” (Germaniya)

sug‘urta qoplamasи асосида xorijiy banklar sindikatlangan **190,0 mln. yevro** miqdorida kreditni mablag‘larini jalb qilish ishlarini olib bormoqda.